

## **ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA MUMTOZ ADABIY AN'ANALAR TALQINI**

**BuxDPI dotsenti: Sh. Nizomova**  
**1–kurs magistranti: S.Q. Davlatova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Erkin Vohidovning o'zbek adabiyotiga, xususan, g'azal janri taraqqiyotiga qo'shgan behisob hissasi shoir g'azaliyotidagi mumtoz adabiy an'analar, badiiy san'atlar va an'anaviy obrazlar haqida mushohadalar mavjud.

**Kalit so'zlar:** aruz, g'azal, tashbeh, tazod, adabiyot, talmeh, adabiy an'ana, yumor.

### **INTERPRETATION OF CLASSICAL LITERARY TRADITIONS IN THE POETRY OF ERKIN VOHIDOV**

**Annotation:** This article contains observations about Erkin Vohidov's invaluable contribution to Uzbek literature, especially to the development of the gazal genre, the classical literary traditions, artistic arts, and traditional images in the poet's gazal writing.

**Keywords:** gazal, tashbeh, tazod, literature, talmeh, humor, literary traditions

### **ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КЛАССИЧЕСКИХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ТРАДИЦИЙ В ПОЭЗИИ ЭРКИНА ВОХИДОВА**

**Аннотация:** В данной статье собраны наблюдения о неопределимом вкладе Эркина Вохидова в узбекскую литературу особенности развития жанра газели классических литературных традиций художественного искусства и традиционных образов в газели поэта.

**Ключевые слова:** газаль, ташбих, тазо, литература, ялме, юмор, литературные традиции

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri, millatimizning ulug' namoyandasi Erkin Vohidov ulug' nosir, publitsist, tarjimon, olim ham edi.

Erkin Vohidov ijodi mumtoz adabiyotga xos bo'lgan ohanglar bilan yo'g'rilgan, ulug' mutafakkir bobolarimiz ijodidan suv ichgan nihol bo'lib yetishdi. Bu nihol ne-ne bo'ronlar-u, vahshatlarga dosh berib chinakam daraxt bo'ldi, bu daraxtning hosilidan esa hali-hanuz, balkim yana ming yillar osha yosh avlod bahra olib yashaydi. Shoirning ijodi ko'p qirrali va keng qamrovli. Xoh nasr, xoh nazmda deysizmi, uning ijodi abadiyatga yo'g'rilgan. Aruz "juda eski va tuzumga to'g'ri kelmaydi", degan iddaolar bilan adabiyotdan siqib chiqarilayotgan bir paytda, uning o'lik taniga jon ato etgan ham, barmoqni yangicha talqinda maydonga olib chiqqan ham, haqni gapirish o'limga teng bo'lgan davrda baralla haqiqatni kuylagan ham, yumor orqali xalqimizga ko'zgu

tutgan ham – Erkin Vohidovdir. Tilimizning, millatimizning fidoyi jonkuyarlaridan bo‘lgan Omonulla Madaev mana bunday yozadi; “Erkin Vohidov ijodi she’riyat muxlisi uchun favqulodda yangilik xazinasi hisoblanadi. Xususan, barg ostidan iboli g‘unchaning muloyim boqishi, gullar oshiq bulbulning she’r daftari ekani, quyosh etagiga oq bulut bog‘lab, o‘rik shoxlarida bodroq qovurishi, yana shu quyoshning o‘zi majnuntolning yuvilgan sochlarini tarashi, qo‘yingki, “inson asta-asta boqiylikka o‘tadi, xolos”ligi faqat tug‘ma dilbar shoir kashfiyoti bo‘lishi mumkin. Muhimi, bu yangiliklarni aynan o‘zbekning sinchkov ko‘zi ko‘rgani. Chunki shoirimiz butun vujudi, butun borlig‘i bilan, his-tuyg‘ulari bilan o‘zbekning farzandi edi”[2,11]

Erkin Vohidov she’rlarida mumtoz adabiyotga xos badiiy vosita, Sharq adabiyotidagi an’anaviy obrazlar, turfa xil she’riy san’atlarning go‘zal topilmalarini uchratish mumkin. G‘azal, qasida, muxammas, ruboiy kabi mumtoz lirik janrlarda qalam tebratdi. Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi buyuklikda benazir shoirlarimizga tatabbular bitdi. Xususan, g‘azal janriga yangi nafas olib kirgan ijodkor uslubining o‘ta ravon va samimiyligi bilan adabiyot ixlosmandlari orasida tilga tushdi. Mumtoz shoirlarimiz she’rlari ta’sirida, ular ruhi va shaklida yaratilgan ijod namunalari asrlar osha keyingi avlod tafakkuri uchun ham asos vazifasini o‘taydi.

Shu o‘rinda adabiyotshunos olim I. G‘afurovning ushbu fikrlari diqqatga sazovordir: —E.Vohidov zamondoshimiz. U o‘zi bilan birga she‘r xazinalarini olib yuradi. Uning bilan birga Navoiy yurgandek, Fuzuliy yurgandek, Gyote yurgandek, Geyne yurgandek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Cho‘lpon yurgandek[7,346 - bet]. Shoirning 1969-yilda nashr etilgan “Yoshlik devoni”dan o‘rin olgan ijod namunalari mumtoz adabiyot an’analarini ruhida yaratilganligi, mumtoz adabiyotga xos bo‘lgan badiiy vosita va she’riy san’atlarning qo‘llanganligi, zamonaviy g‘azalchilikni rivojlantirganligi bilan alohida ahamiyatlidir. Ushbu devondan g‘azal, ruboiy, muxammas kabi janrlar keng o‘rin olgan. Shuningdek, shoirning ko‘pgina she’rlarida mumtoz adabiyotga xos tushuncha, atama, obraz va timsollar ishlatilganligining guvohi bo‘lamiz: sanam, hajr, vasl, sayyod, sayd, ohu, jodu, ishq domi, qahrabo, may, mayxona, g‘am sipohi, sarv kabilar bunga misoldir.

Ikki irmoq ko‘z yoshida **hajr** dardidir ayon,

**Vasl shavqi** zohir o‘lg‘ay raqsida, kulgusida.

yoki

**Saydi ishq** so‘lgan ko‘ngilga qo‘ymangiz behuda ayb,

Bo‘lsa **bandi domi sayyod** yo‘q erur orzuda ayb.

Shoir ijodidagi mumtoz an’analar haqida fikr yuritganda, uning sharq adabiyotida tez-tez uchraydigan an’anaviy obrazlardan mohirona foydalanganligining guvohi bo‘lamiz:

Sevgi vodiysida menga teng kelolgay qaysi **Qays**,  
Ko'nglim ochsam ikki dunyo bu kabi afsona yo'q.

Oshiq o'z ishqini bayon etar ekan, sevgisi Qaysdan ham kuchliroq ekanligini agar ishqini izhor qilib doston yozsa, bunday ishq, bunday afsona ikki dunyo yo'qligini bayon qiladi. "Samar bo'lg'ay" g'azalida esa yorning go'zalligi Farhod va Shirin obrazidan hamda dostondagi ko'zgu motividan foydalangan holda juda go'zal tasvirlanadi:

Tirilsa nogahon **Farhod** yuzingni ko'rsa ko'zguda

Kechib **Shirinidin** yuz yil kuyingda darbadar bo'lg'ay.

Shoir ijodining yana bir jihati shundaki, u mumtoz lirik janrlarning gultoji bo'lgan g'azalga yumorni, yengilgina kulguni mohirlik bilan yashira olgan. G'azallar asosan ijtimoiy mavzuda bo'lib, turmushdagi oddiy jarayonlar, jamiyatdagi ba'zi illatlarni kitobxonga sodda va samimiy tarzda tasvirlab beradi. Bu orqali ijodkor bir yo'la 3 ta ishni mohirona ado etadi: mumtoz an'analarga amal qiladi, ijtimoiy hayotni qamrab oladi va o'quvchiga yengilgina tabassumni hadya qiladi.

"Ko'chamen" g'azalidan:

Har ko'cha obod,hamon men turfa vayron ko'chamen'

Yozda changistonu,qishda balchig'iston ko'chamen.

Ko'chamen der bo'lsam evoh ko'plar aylar ishtiboh,

Bilmadim rost ko'chadurmen,yoki yolg'on ko'chamen.

Shoir ushbu g'azalida oddiy qishloq ko'chasini juda ajoyib shu bilan birga yengil kulgu orqali tasvirlagan. Tasvirlarda tajnis sana'tidan ham unumli foydalanilgan.

"Boshindadir" g'azalidagi ushbu misralar ham sizga ajoyib kayfiyat ulashmay qo'ymaydi:

O'n sakiz ming olam oshubi padar boshindadir,

Ne ajab chun o'g'li oning o'n sakiz yoshindadir.

Ul padar oh urmasin,nechu yaqosin chok etib

Neki badfe'l bo'lsa bari ushbu beboshindadir.

O'zgalardan kulgay erdi ko'cha-ko'yda bir zamon,

Aqlga yuz hayrat emdi,bul aning qoshindadir.

G'azal qonuniyatlarini chetlab o'tmagan holatda unga yumorni sig'dirib,zamonaviylik ruhini singdirib kitobxonga yetkazib berish o'jodkordan juda katta mahorat talab qiladigan jarayondir.

Mumtoz adabiyotning yana bir go'zal tomoni –she'riy san'atlarning qo'llanishi. Erkin Vohidov g'azallarida ham she'riy san'atlarning betakror namunalarini ko'rishimiz mumkin.

1. Talmeh(misrada mashhur shaxs yoki voqeaga ishora qilish)

1. Devonning “Debocha’sidan:

Ey munaqqid sen g’azalni ko’hna deb ranjitmagil,  
Sevgi ham **Odami Atodin** qolgan inson qonida.

2. **Navoiy** sham kabi yonib xazondek sarg’ayib so’lmish,  
Varaqlar ham olibdir sohibi devoni rangidan.

**Fuzuliy Karbalo** dashtin quyundek kezdi Qays birlan  
Dili hech topmadi taskin, davrning boda bangidan.

3. Ishtiyoq (baytda o’zakdosh so’zlardan foydalanish)

1. **Gul** bo’lib, **gul-gul** yonib **Gulshan** aro **Gulchehralar**,  
**Gul** uzib o’ynar qo’yib **gulga** bino **Gulchehralar**.

2. Otashin **gul** uzdim, ol, bu shohi **gullar** shohi **gul-**  
**Gul** sochiq yo’llarda bo’lsin, **gul** yuzim hamrohi **gul**

4. Tajohil-u orif (Ritorik so’roq, baytning mazmunida so’roq, ikkilanish, gumonsirash,  
hayratlanish sezilib turadi).

1. “G’uncha” g’azalidan:

Barg ostidan muloyim boqqan iboli g’uncha,  
Ne sirni saqlagaysan, bag’ring nechun tuguncha?  
Pinhon siring, bayon et, ko’ksingni qilma ko’p qon,  
Bu yoki ishq atalgan bizga ayon tushuncha?

5. Tashbeh (o’xshatishning bir turi)

1. “Ko’zing” g’azalidan:

Hajrdin tor bu ko’ngilga **shu’la afshondir ko’zing**,  
Yo magar ko’nglim yo’qolgan **tor shabistondir ko’zing**.  
Husn ahli ichra tengsiz, sen-ku **hoqonsan o’zing**,  
Sehr mulki ichra tanho **shohu sultondir ko’zing**.

6. Tashxis (shaxslantirish)

1. “Rashkim” g’azalidan:

Ko’zim yongay senga **nargis ko’zin tiksa chamanlarda**,  
Yashirmam lolaga rashkim ayon bo’lgay ko’zimdan ham.

2. “Yana qalamga” g’azalidan:

Orazin tasvir etarda, bargi gul chok-chok o’lub,  
**Qoshi ta’rifini aylab yig’lasin shaydo qalam**.

7. Tazod (zidlantirish, baytda bir-biriga qarama-qarshi so’zlarni qo’llash)

1. “Samar bo’lg’ay” g’azalidan:

Seningsiz menga kom yo’qdir, asal ichsam zahar bo’lg’ay,  
Sening birlan shirin so’zim, **zahar** yutsam **shakar** bo’lg’ay.

2. “Rubobim tori ikkidur” g’azalidan:

Rubobim tori ikkidur: biri **quvnoq**, biri **mahzun**,  
Ki baytim satri ikkidur: biri **dilxush**, biri **dilxun**.

**8. Irsoli masal (baytlarda maqol, hikmatli so'zlardan foydalanish)**

1. "O'rtada begona yo'q" g'azalidan:

Kuyida men tosh boshimni urmagan ostona yo'q,

Elda bor shunday masal: **Jon chekmasang, jonona yo'q.**

2. "Yo'q emish orzuda ayb" g'azalidan:

Sen-ku Zuhrosan falakda intizoringman, faqat,

Ne ajab tolpinsa ko'nglim, **yo'q emish orzuda ayb.**

Ijodkor g'azalda ham katta ijtimoiy mohiyat, inson qalb iztiroblari va dramatik kechinmalarni ifodalash mumkin ekanligini isbotlab berdi. Ayrim g'azallarida so'zning jozibasi, harorati, nafis va latif ifoda usulida namoyon bo'lsa, ayrimlarida inson qalbining og'ir kechinmalari, ijtimoiy hayotning falsafiy mushohadasi va mazmuni bayon etiladi:

Barg ostidan muloyim boqqan iboli g'uncha,

Ne sirni saqlagaysan, nechun bag'ring tuguncha.

Bo'ldingmi men kabi yo bir bevafoqa oshiq,

Ayt, sevganingni senga parvosi yo'qmi uncha.

Nihoyatda ravon, sodda va samimiy satrlar. SHoir – oshiq boshini egib turgan atir gul g\_unchasida o'zining taqdirini, kechinmalari, ruhiy holatini, oshiqlikning iztirobli ayni paytda rohatbaxsh ruhiyatini ko'radi. Unga o'zini qiyoslaydi. Naqadar latif va jozibador o'xshatish. Umuman, olganda Erkin Vohidov tabiatan mayin va latif inson edi.

Xulosa qilib aytganda Erkin Vohidov mumtoz adabiyot an'alariga rioya qilgan holda, salaflari ijodidan ta'sirlanib, g'azallarda keltirilgan obrazlarni badiiy rivojlantiradi, mazmunan boyitadi. Ilmi bade' qonun-qoidalariga amal qiladi. Qofiya va vazn xususiyatlarini saqlashga harakat qiladi. Badiiy san'atlar borasida, ajoyib mubolag'alar yaratadi. Erkin Vohidovning mumtoz lirik janrlarda mohirona ijod qilishi nafaqat buyuk shoir, balki nazariy bilimlarga ega olimlik sifatlaridan ham dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidovning aruz vaznida yozgan she'riyatida mumtoz adabiyot xususan, Alisher Navoiy an'analari ta'siri yaqqol sezilib turadi. Haqiqiy she'riyat teran tafakkur, yorug' tuyg'ular va chinakam hayajon hosilasidir. Bu kabi ijod namunalari esa hamisha barhayotdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Vohidov E.. Ishq savdosi. Saylanma. 1-jild. – T.: Sharq, 2000.
2. Madayev.O.Insoniyatni uygotgan shoir.Ma'rifat.2016.N97
3. Vohidov E.. Yoshlik devoni. – T.: Adabiyot va san'at, 1969.

4. E. Vohidovning soʻz qoʻllash mahorati. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Guliston, 2020.
5. Erkin Vohidov saboqlari. – T.: Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi. 2016. 129-b.
6. E.Vohidov. Mening yulduzim.Toshkent-2018
7. E. Vohidovning soʻz qoʻllash mahorati. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Guliston, 2020.